



## MAQSUD SHAYXZODA TILIDA MAKTABGA AYTILGAN TA'RIF!

---

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi*  
*Toshkent davlat transport universiteti*  
*Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi*  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston va Ozarbayjon xalqining suyukli farzandi Maqsud Shayxzodaning "Maktabim" she'rida maktabga ilk qadam qo'ygan jaji qalbning hayajonga to'la hissiyotlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab, alifbe, hissiyot, bilim, ma'no, el, sinf.

## ОПИСАНИЕ ШКОЛЫ НА ЯЗЫКЕ МАКСУДА ШЕЙХЗАДЕ!

---

Юлдошева Фарангиза Сайфиддиновна.  
Ташкентская область транспортный университет  
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени  
[yoldoshivafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshivafarangiz311@gmail.com)

**Абстрактный.** В этой статье любимое дитя народов Узбекистана и Азербайджана стихотворение Максуда Шайхзаде «Моя школа» описывает эмоции маленькой души, впервые шагнувшей в школу.

**Ключевые слова:** школа, алфавит, эмоция, знание, смысл, человек, класс.

## DESCRIPTION OF THE SCHOOL IN THE LANGUAGE OF MAQSUD SHEIKHZADEH!

---

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna  
Tashkent state transport university  
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Abstract.** In this article, the beloved child of the people of Uzbekistan and Azerbaijan, Maqsud Shaykhzada's poem "My School" describes the emotions of the little soul who first stepped into school.

**Key words:** school, alphabet, emotion, knowledge, meaning, people, class.



Maktab-ilm dargohi. Har bir jajji qalb tug'ilar ekan u yuzasidan ota-onasi har xil orzular qiladi. Uning ilk qadamlarini intizorlik bilan kutadi. Uning avval bolalar bog'chasiga borishi va undan keyin ilm dargohi hisoblangan maktab ostonasiga qadam qo'yishi bu uning hayotida butun umrga muhrlanib qoladigan, go'zal xotiralar hisoblanadi. Ikki xalqning so'nmas yulduzi Maqsud Shayxzoda ham o'zining "Maktabim" she'rida aynan shu narsalarni ifodalagan.

Bu sevimli uyga keldim men,  
Sevimli uy, savlatli bino.  
"Alifbe"ni bunda bildim men  
Ne-ne yangi bilimlar, ma'no.  
Lekin asti tinmaydi, yurak,  
Eh-he, qancha o'qishim kerak!..

Ilm dargohiga qadam qo'yar ekansiz ilk bor siz ko'radigan kitob bu "Alifbe" kitobidir. Unda jami alifbo harflari haqidagi bilimlar o'rin oladi. Bu ilk savod chiqarish kitobidir. Bu kitobni ilk qo'lga olgan bola eh-he hali bu boshlanishi hali yana qancha kitoblar o'qishim kerak, yana qancha darslarim bor deb xayol qilgan jarayonni gavdalandirgan.

O'rmon va ko'l, gulxan va qo'shiq,  
Ko'p gashtlidir cho'qqilar qori.  
Bu yil sinfim bir sinf oshiq,  
Bu yil yoshim bir yosh yuqori.  
Bilimimga qo'shilgach bilim,  
"Barakalla!" deb aytar elim.

Har yili maktabingizda o'qir ekansiz yillar o'tib borar ekan, yoshingiz ham har yili bir yoshga ulg'ayadi. Va shunga yarasha bilimlaringiz ham borgan sari yuqori darajalarga ko'tariladi.

Bir yoz fasli qadarlik tashna,  
Bo'ldim dilda darsga, bilimga;  
Ko'p sog'inchli salomni, mana,  
Olib keldim muallimimga.  
Dadam menga- yaxshi o'qi! der;  
Yomon o'qirmidi pioner!?

Bolaning qalbi yoz fasli kabi bilimga, yangi ilm o'rganishga tashna bo'lishi, maktabga borganda ustozingizga bir olam sog'inchli salomlar bilan borishingiz ta'riflangan.

Bizlar keldik ko'p shod-u quvnoq,



Shu jonajon maktabga bugun.  
Ochil eshik, chalin qo'ng'iroq,  
G'ayrat va kuch shu yozga yakun,  
O'qit, o'rgat bizlarni maktab,  
Bilim, hunar qudratin maqtab!

Ilm dargohida biz shodon o'qib o'ynaylik sen bizlarga doim bilim berishdan charchama deya maktabga qarata xitob qilgan. Biz ham sendan ilm ham hunar o'rganaylik, o'z bilimlarimizni rivojlantiraylik, seni maqtab-maqtab yuraylik deya e'tirof etilgan.

Albatta, ustoz otangdek ulug' degan ibratli maqol bor. Ilm o'rgatgan ustozning haqqini hech qanday narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Va yana bir muhim narsa borki u ham bo'lsa, yoshlikda olingan bilim- toshga o'yilgan naqsh kabidir. Shubhasiz, inson bolalik payti egallagan bilimlarini hech qachon unutmaydi. Xotirasida juda uzoq muddatlarga saqlanib qoladi. Bu eng muhimidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://oz.sputniknews.uz/20231030/maqsud-shayxzoda-biografiya-40453635.html>
2. NAIM KARIMOV. MAQSUD SHAYXZODA
3. Maqsud Shayxzoda. She'rlar.